Olimpiada topshiriqlari
O‘zbek tili 10

1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi

1. Kesim tuzilishiga ko‘ra nechta turga bo‘linadi?
A) 3 turga bo‘linadi.
B) 4 ta turga bo‘linadi.
C) 2 ta turga bo‘linadi.
D) 5 ta turga bo‘linadi.

2. Matni o‘qing va mos keladigan nomni aniqlang.

Tillashayx masjidi toshkentlik mashhur Tillashayx tomonidan bunyod etilgan. Me’moriy obida o‘z dizayni bilan o‘z davrida qurilgan masjidlardan ajralib turgan. Inshoot to‘rtburchak tarhli, gumbazsimon, masjidning ikki yonida uncha katta bo‘lmagan minoralar bo‘lib, masjidga arksimon qilib qurilgan ayvon orqali kiriladi. Arklar soni 3 ta. Masjidning tashqi tomoni bezaklardan xoli bo‘lib, uning ikki yonida masjidga yorug‘lik tushishini ta’minlash uchun 18 ta deraza o‘rnatilgan. Masjidning ichki ko‘rinishi tashqi ko‘rinishidan mutlaqo farq qiladi, undagi ganch naqshlar, gulli bezaklar insonni beixtiyor o‘ziga jalb qiladi. Masjid ichidagi gumbaz osti naqshlar ham o‘zining nafisligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Masjidni yoritish maqsadida qandillar ham o‘rnatilgan. Masjidning bugungi kungacha va bugungi holati haqida gapiradigan bo‘lsak, masjid usta Shirin Murodov tomonidan ta’mirlangan. 2007-yil Hastimom majmuasi bunyod etilgan davrda me'moriy obida atrofidagi e'tiborga molik obidalar ham ta'mirlandi.

A) Hastimom majmuasi
B) Usta Shirin Murodov yodgorligi
C) Temuriylar maqbarasi
D) Tillashayx masjidi

3. Qaysi so‘zlar talaffuzida so‘z oxiridagi jarangli undosh tushib qoladi?
1) gramm; 2) poyezd; 3) go‘sht; 4) kilovatt.
A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2, 3
C) 1, 2 D) 3, 4

4. Berilgan gapdagi nuqtalar o‘rniga mos so‘zni qo‘ying?
“Amakimning qizi Sevara … Samarqandga bormagan.”
A) hech qachon
B) har doim
C) har qachon
D) allaqachon

5. Qaysi qatordagi qo‘shimchlarni so‘zga qo‘shganda yangi so‘z yasab bo‘lmaydi?
A) -da, -ni, -ning
B) -li, ba-, -bo
C) -gi, -chi, -kor
D) -ona, -siz, -lab

6. Sifatdan yasalgan so‘zni aniqlang.
A) qiynamoq
B) do‘stlik
C) qaynoq
D) beaql

7. *va, ham, hamda* bog‘lovchilarning qaysi turiga kiradi.
A) biriktiruv bog‘lovchisi
B) zidlov bog‘lovchisi
C) ayiruv bog‘lovchisi
D) inkor bog‘lovchisi

8. Fe’l nisbatini aniqlang.
Buyumlarga qo‘l tegizilmasin!

A) birgalik
B) majhul
C) orttirma
D) o‘zlik

9. Ushbu parchadagi olmoshlar sonini aniqlang.
Sen niholsan, zavoling – o‘zim,
Sen – tiriklik, men esa o‘lim.
Kunduz bo‘lsang, men tun bo‘laman,
Sen bor bo‘lsang, butun bo‘laman. (E. Vohidov)
A) 7 ta B) 4 ta
C) 6 ta D) 5 ta

10. His-hayajon undovlari ishtirok etgan gapni aniqlang.
A) Yosh bo‘lsa-da, barchaga bosh bolam.
B) Televizorni faqat kechqurunlarigina ko‘radi.
C) Keksalarga yordam berish hammamizning burchimiz/
D) Hoy, kim bor, yordam bering!

2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi

11. Quyidagi berilgan gaplardan qaysi birida ravishdosh bilan ifodalangan kesim berilgan?
A) Men maktabga boraman.
B) Motor gurullab, mashina oldinga intildi.
C) Botir xatni kecha yuborgan
D) 8- “B” sinf o‘quvchilari musobaqadan qaytishdi.

Olimpiada topshiriqlari
O‘zbek tili 10

12. Matnda ostiga chizilgan so‘zlarni qaysi so‘z turkumidaligini aniqlang.

Tillashayx masjidi toshkentlik mashhur Tillashayx tomonidan bunyod etilgan. Me’moriy obida o‘z dizayni bilan o‘z davrida qurilgan masjidlardan ajralib turgan. Inshoot to‘rtburchak tarhli, gumbazsimon, masjidning ikki yonida uncha katta bo‘lmagan minoralar bo‘lib, masjidga arksimon qilib qurilgan ayvon orqali kiriladi. Arklar soni 3 ta. Masjidning tashqi tomoni bezaklardan xoli bo‘lib, uning ikki yonida masjidga yorug‘lik tushishini ta’minlash uchun 18 ta deraza o‘rnatilgan. Masjidning ichki ko‘rinishi tashqi ko‘rinishidan mutlaqo farq qiladi, undagi ganch naqshlar, gulli bezaklar insonni beixtiyor o‘ziga jalb qiladi. Masjid ichidagi gumbaz osti naqshlar ham o‘zining nafisligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Masjidni yoritish maqsadida qandillar ham o‘rnatilgan. Masjidning bugungi kungacha va bugungi holati haqida gapiradigan bo‘lsak, masjid *usta Shirin Murodov tomonidan ta’mirlangan. 2007-yil Hastimom majmuasi bunyod etilgan davrda me'moriy obida atrofidagi e'tiborga molik obidalar ham ta'mirlandi.*

A) son, ot, ot
B) sifat, sifat, ot
C) son, sifat, ot
D) sifat, ot, ot

13. Nuqtalar o‘rniga mos keladigan kirish so‘zni qo‘ying.

…ishimizni oxirigacha yetkaza olmadik.

A) qisqasi
B) afsus
C) albatta
D) birinchidan

14. Gapda nechta sifatdosh qatnashagan?

O‘zbekistonda 40 asrdan ko‘proq vaqt davomida yaratilgan me’moriy yodgorliklar saqlanib qolgan. Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlaridagi YUNESKO ro‘yxatiga kiritilgan ushbu me’moriy obidalarni har yili minglab sayyohlar keladilar.

A) Ikkita
B) Uchta
C) To‘rtta
D) Beshta

15. Ravish holi qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?

A) qachon?, qayerga?
B) qancha?, nechalab?
C) qachongacha?, nega?
D) qanday qilib?, qay tarzda?

16. Quyidagi gaplar qaysi yozuvchi haqida?

Ish kunlari ertalab soat 8 dan boshlanardi. Nonushtadan so‘ng soat 12 gacha ishlar, bu vaqt ichida hech kim ularni bezota qilmas edi. Bir yarim-ikki sahifa ijod qilish uchun 4-5 soat o‘tirar, biror so‘zni o‘zgartirish kerak bo‘lsa,o‘sha sahifani yana qayta ko‘chirib chiqar edilar.

A) Usmon Nosir
B) Oybek
C) Abdulla Qahhor
D) G‘afur G‘ulom

17. Qanday birlik vergul yoki undov belgisi bilan ajratilishi mumkin?

A) Undalma
B) Kiritma
C) Umumlashtiruvchi bo‘lak
D) Ajratilgan bo‘lak

18. Qaysi javobda undov, taqlid va modal so‘zlarning har biriga misol berilgan?

A) yoxud, qars, hay
B) xullas, shildir-shildir, eh
C) voy, pisht, shekilli
D) yal-yal, miyov, darvoqe

19. Egali gapni toping.

A) Bugungi ishing hech kimga yoqmadi.
B) Shirin xayollaring oldimmu?
C) Laylo, sening oldingda bir dam ko‘rmoqchiydim o‘zimni.
D) Balki, o‘chgan edim yodingdan.

20. “*Men faqat a’lo baholarga o‘qiyman*” gapidagi qaysi so‘z tushirilsa, ma’no kuchsizlanadi?

A) men
B) faqat
C) baholarga
D) o‘qiyman

3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi

21. Quyidagi berilgan gaplardan aniqlovchi ravish so‘z turkumi bilan ifodalangan gapni toping.

A) Bobom kechagi voqeani gapirib berdilar.
B) Besh-olti xil meva olib kelishdi.
C) Tillakori madrasasidagi naqshlarga oltin suvi yurgizilgan.
D) Ariqlarda billurday suv oqadi.

Olimpiada topshiriqlari
O‘zbek tili 10

22. Matni o‘qing. Quyidagi berilgan javoblardagi qaysi ma’lumot mantda keltirilgan ma’lumotlarga mos emas?

Tillashayx masjidi toshkentlik mashhur Tillashayx tomonidan bunyod etilgan. Me’moriy obida o‘z dizayni bilan o‘z davrida qurilgan masjidlardan ajralib turgan. Inshoot to‘rtburchak tarhli, gumbazsimon, masjidning ikki yonida uncha katta bo‘lmagan minoralar bo‘lib, masjidga arksimon qilib qurilgan ayvon orqali kiriladi. Arklar soni 3 ta. Masjidning tashqi tomoni bezaklardan xoli bo‘lib, uning ikki yonida masjidga yorug‘lik tushishini ta’minlash uchun 18 ta deraza o‘rnatilgan. Masjidning ichki ko‘rinishi tashqi ko‘rinishidan mutlaqo farq qiladi, undagi ganch naqshlar, gulli bezaklar insonni beixtiyor o‘ziga jalb qiladi. Masjid ichidagi gumbaz osti naqshlar ham o‘zining nafisligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Masjidni yoritish maqsadida qandillar ham o‘rnatilgan. Masjidning bugungi kungacha va bugungi holati haqida gapiradigan bo‘lsak, masjid usta Shirin Murodov tomonidan ta’mirlangan. 2007-yil Hastimom majmuasi bunyod etilgan davrda me'moriy obida atrofidagi e'tiborga molik obidalar ham ta'mirlandi.

A) Masjidning ichki qismini bezashda gulli bezaklar, ganch naqshlaridan foydalanilgan.
B) Masjidning tashqi tomonida bezaklar yo‘q.
C) Yodgorlik Shirin Murodov tomonidan bunyod etilgan.
D) Tillashayx masjidida arklar soni uchtani tashkil etadi.

23. Berilgan namunlardan qaysi birida faol kirish so‘zlar ishtirok etmagan?
A) Birinchidan, matnni diqqat bilan o‘qib chiqish kerak, ikkinchidan uning mazmunini so‘zlab berish kerak.
B) Afsus, futbol jamoamiz musobaqada yutqizib qo‘ydi.
C) Ehtimol, men uni ertaga ko‘raman.
D) Abdulla Avloniy, o‘z davri boshlang‘ich maktablari uchun bir nechta o‘quv qo‘llanmalar yaratgan.

24. *Ey, baxt ulashganlar, bizga qo‘shiling!*
Yuqoridagi gapda undalma qaysi so‘z turkumi bilan ifodalab keltirilgan?
A) Olmosh bilan B) Sifatdosh bilan
C) Sifat bilan D) Ot bilan

25. Quyidagi berilgan gaplarga mos keluvchi nisbat qo‘shimchalarni toping.

1) Nurga to‘ldi dara, to‘ldi soy,
Nur yog‘…di qorong‘u jarga.
2) Yaltiraydi, doim tovla…ar,
Oy nuriga cho‘miluvchu tosh.
3) Dalalarda boshla…adi ish,
Boshla…adi ijod va tashvish.
A) -in, -n, -l, -in.
B) -il, -n, -n, -in.
C) -il, -n, -n, -n.
D) -il, -in, -n, -in.

26. Berilgan ma’lumotlardan to‘g‘risini toping.
A) Mazmunan faqat I va II shaxsga talluqli gaplar shaxsi umumlashgan gaplar deyiladi.
B) Shaxsi topilmas gaplar egasini topib ham, gap tarkibiga kiritib bo‘lmaydigan gaplarga aytiladi.
C) Ikki so‘zdan iborat bo‘lib, boshqa so‘zlar bilan kengaya olish imkoniga ega gaplar so‘z-gaplar deyiladi.
D) Modal so‘z-gaplar his-tuyg‘uni ifodalab keladi.

27. Nuqtalar o‘rniga mos ravishda qanday undoshlar qo‘yilishi kerak?
Hamma yo...da to‘kin-sochinlik. Shunday yurt...a yashayot...animizdan fa...rlansak arziydi.
A) g‘, t, k, h B) q, d, t, x
C) g‘, d, k, x D) q, d, g, x

28. Ayiruv bo‘g‘lovchisi ishtirok etgan gapni toping.
A) Ikkovi ham onasiga uy-ro‘zg‘or ishlariga yordam berishdi.
B) A’zamjon va Azizjon maktabdan uyga kelishdi.
C) Kechki payt yo Sobir, yoki Hasan ukasini bog‘chadan olib keladi.
D) U na do‘stini na ukasini topa olamdi.

29. Ushbu gapda qaysi nisbat shaklidagi fe’l qo‘llanmagan?
Chaqirilmagan joyga bormas, rejalarini ertaga qoldirmas edi.
A) aniq nisbat B) orttirma nisbati
C) majhul nisbat D) o‘zlik nisbati

30. Quyidagi jonzot nomlaridan nechtasi o‘z shakldoshiga ega?
1) ot; 2) bit; 3) sug‘ur; 4) sher; 5) qurt; 6) qarg‘a.
A) 3 tasi B) 4 tasi
C) 5 tasi D) 6 tasi